



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2022 - yil 28 - mart

VI-59-67-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

Bulung'ur tumanida 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining mart oyida bajarilishi to‘g‘risida

Tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining mart oyi ijrosi to‘g‘risidagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti eshitilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashining ellik to‘qqizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tumanda 2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining mart oyi ijrosi to‘g‘risidagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Xabibullayevning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman sektor rahbarlari (S.Astonov, S.Saidov, B.Jo‘raqulov, Sh.Eshmurotov), tuman hokimining o‘rinbosarlari (D.Xabibullayev, A.Elmurotov, A.Xalikulov, A.Rizayev, A.Buriboyev), tegishli korxona va tashkilotlar mas’ullari bilan birlgilikda:

iqtisodiy o‘sishni ta’minalash xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish va 2023-yilga qadar xizmatlar hajmini ikki barobarga oshirish;

dastur ijrosi bo‘yicha bajarilgan ishlar yuzasidan tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limiga har bir yaratilgan ish o‘rinlarini nomma-nom namunaviy ilovalarda aks ettirilgan holda ma’lumotlarni muntazam ravishda hisobot shaklida taqdim etib borilishini ta’minalash choralarini ko‘rsin.

3. Tumandagi tegishli tijorat banklari 2022-yil uchun xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan dasturidagi loyihalarning amalga oshirilishi uchun kredit mablag‘larini o‘z vaqtida ajratilishini ta’molasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Jabborov), “Bulung‘ur hayoti” gazetasi (G‘.O‘rolov)larga tumanda xizmatlar ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar yuzasidan olib borilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Mahalliy budgetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (D.Xabibullayev) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



S.Astonov